

YOSHLAR ONGIDA KASBIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH .

Yuldasheva Inobat Ashuraliyevna.

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti, katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushu maqolada yoshlarda va oliy o'quv yurtlarida pedagog kadrlar tayyorlash davrida ularning o'z kasbiga bo'lgan kasbiy qadriyatlarini rivojlantirish, kasbiy o'zini anglash, kasbiy qadriyatlarini hurmat qilish, pedagogik faoliyati jarayonida o'quvchi yoshlarga kasbiy qiziqishlarini, shakllangan layoqatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirib, kasbiy maslahatlar berib borish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy qadriyat, bo'lajak mutahassislar, pedagogik faoliyat, kasbiy qiziqishlar, kasbiy maslahatlar, bilim, malaka va ko'nikmalar, zamonaviy kasblar.

Annotatsiya. В данной статье при подготовке педагогических кадров в высших учебных заведениях развитие у них профессиональных ценностей своей профессии, профессионального самосознания, уважение к профессиональным ценностям, учет профессиональных интересов и способностей студенческой молодежи в в ходе своей педагогической деятельности задумывается о даче профессиональных советов.

Ключевые слова: профессиональная ценность, будущие специалисты, педагогическая деятельность, профессиональные интересы, профессиональные советы, знания, умения и навыки, современные профессии.

Annotation. In this article, during the training of pedagogic personnel in higher educational institutions, the development of their professional values for their profession, professional self-awareness, respect for professional values, during the pedagogical activity of the students, taking into account their professional interests and abilities it is thought about giving professional advice.

Key words: professional value, future specialists, pedagogical activities, professional interests, professional advice, knowledge, skills and abilities, modern professions.

Insonning jamiyatda yashashi, shaxs bo'lib shakllanishida uning fe'l- atvori tabiati tashqi ta'sirlarga munosabati muxim ahamiyatga egadir. Endigina mustaqil hayotga qadam tashlayotgan yoshlar ta'lim -tarbiya buloqlaridan qonib suv icharkan, albatta o'z oldiga maqsadlarni qo'yadi; men katta bo'lsam shifokor bo'laman, men ulg'aysam uchuvchi bo'laman ,me'mor bo'laman, men o'qituvchi bo'laman... Bu qat'iy maqsadlar bola umum ta'lim maktabda boshlangich sinflarda o'qib yurgan

paytlardayoq shakllantirishga bugun jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimini jadal rivojlantirayotgan va yoshlar siyosatiga xukumat darajasida e'tibor qaratayotgan etakchi mamlakatlar sirasiga kiradi. Xususan, maktablardan uchirma bo'layotgan o'smirlarni o'z qiziqishlari bo'yicha kasblarga yo'naltirish, ularni keyingi ta'lim bosqichiga shunchaki zaruriyat emas, balki inson taqdiridagi eng muhim masala sifatida qaralayotgani ham insonning hayotida uning egallagan kasb-kori, hunari muhim ro'l o'ynaydi, sababi biz egallagan kasbimiz orqali bir umr oila tebratamiz, ehtiyojlarimizni qondiramiz, farzandlarimiz kelajagini quramiz, orzu-umidlarimiz ro'yobiga erishamiz.

Shunday ekan bugungi o'quvchi-ertangi mutaxassislarga to'g'ri yo'llanma berish ishiga eng dolzarb masala sifatida qaralishi ham bejiz emas. Yoshlarni kelajakda kasb tanlashiga to'g'ri maslahat berish, to'g'ri yo'l ko'rsatishimiz zarur. Ba'zi bir ota-onalar farzandlarini qiziqishlarini xisobga olmaydilar. Agar ota-ona farzandining xoxishini biror kasbga qiziqishlarini inobatga olmay, biror tasodifiy mutaxassislikda o'qishga undasa, bundan albatta ota-ona, jamiyat zarar ko'radi.

O'smir qiziqmay adashib kirib qolgan kasbini engil-elpi o'rganadi. Bunday malakasiz mutaxassis etuk kasb egasi bo'lmaydi. Kasbini qadriyat deb bilmaydi. Kasbiy maslahat—o'rta ta'lim maktablarining tamomlayotgan, asosan yoshlarga mo'ljallangan kasblar haqidagi ilmiy tashkillashtirilgan ma'lumotlar moyillik qiziqishlar va shakllangan layoqatlarni, shuningdek jamiyat ehtiyojlarini hisobga olib kasb tanlashda amaliy yordam maqsadida kasbning o'rni va istiqbollari, mutaxassislarga ehtiyoj, mehnat faoliyatining mazmuni, kasbning ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy gigienik mavqei, kasbiy ta'lim olish yo'llari bir tomondan va insonga kasb qo'yadigan talablar, uning o'ziga xosliklari, kasbning tibbiy fiziologik ko'rsatkichlari va g'ayri ko'rsatkichlari haqida ikkinchi tomondan kasbiy maslahat insonning intilishlari va imkoniyat ko'rsatkichlari bilan tegishli malakaga, ega mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj o'rtasida samarali nisbatni o'rnatishga ko'maklashadi va kasb tanlashda muxim ahamiyatga ega bo'ladi.

Kasbiy maslahat kasbga yo'naltirishning muhim bo'ginlaridan biri sifatida tegishli bilimlarga ega psixologlar va pedagoglar, tibbiyotchilar va sotsiologlar tomonidan o'tkaziladi. Ular ta'lim muassasalari, korxonalar va xududdagi tashkilotlar bilan jips aloqada ishlashlari lozim. Ularga o'z ehtiyojlari bo'yicha etakchi ilmiy muassasalarning yordami ham zarur bo'ladi.

Oilada ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, ularni zamonaviy kasb-xunar sirlari bilan qurollantirish bilan bir qatorda xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan kasb-xunar, qadriyatlarga hurmat va e'zozni shakllantirish oilaning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishda muhim omil hisoblanadi.

Ilk o'spirinlikdavrida o'quvcilarda biron -bir o'quv faniga yoki uni bilishga nisbatan ishtiyoq ta'siri natijasida ma'lum bir kasbga bo'lgan qiziqish vujudga keladi. U yoki bu kasbga nisbatan qiziqish tanlangan kasb bilan bog'liq fanlarga talabalar uchun motivlar va motivatsiyani yanada takomillashtiradi. Vujudga kelgan qiziqishni o'quvfanlariga, to'g'arak mashg'ulotlariga va fakultativ kurslarga ko'chirish imkoniyatlarni beradi. Bunday imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib uni barqarorlashtirish uchun xizmat qiladi.

Psixologlardan E. A. Klimov, T. V. Kedryavsev, B. A. Kruteskiy, M. G. Davletshin, E. G. Oziyevlarning ma'lumotlariga qaraganda, pedagogika instituti talabalarining yarmi o'qituvchilik kasbini yoqtirib, shu ilm dargohiga kelganliklarini bildirishgan. Ularning qolgan qismi esa, institutga tasodifan kirib qolganliklarini oshkora aytganlar. Biroq bu o'quv yurtiga o'z hohishlari bilan talabalar o'rtasida ham turli hil mulohazalar mavjud. Oqituvchi kasbini yoqtirib o'qishga kirgan talabalarining chorak qismi (25%) olayotgan bilimlarni o'quvchilarga o'rgatish yoki berish maqsadini bildirgan maqsadini bildirgan bolsada, huddi shu miqdodagi (25%) ilk o'spirinlar institutda o'qitilayotgan u yoki bu fanni yoqtirgani sababli o'qishga kirganliklari bayon qilganlar. Talabalarining beshdan bir qismi (20%) esa bolalarning chin ko'ngildan yoqtirganliklari uchun o'qituvchilik kasbini tanlaganlar. O'rta ma'lumot olgunga qadar hamma o'quvchilar kasbini qat'iy tanlaydilar, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin emas. Chunki ularning aksariyat kelajakda kim bo'lib voyaga yetishish nitasavvur qila olmaydilar, huddi shu boisdan, kelajak haqida hech qanday ham reja tuza olmaydilar deb aytish mumkin. Ilk o'spirinlarning ko'pchilik qismi o'rta maktabni tugatgandan so'ng oliy o'quv yurtida o'qishni davom ettirish to'g'risida ham gapiradilar, bu haqda orzu qiladilar.

Istiqbol davri pedagogikasida talabalarni ijodkorlikka yo'naltirish, mustaqil o'qib o'rganish, nazariyani amaliyotga tatbiq etish, ilg'or texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda ularni kasbga bo'lgan qiziqishlarini va kasbiy qadriyatlarini shakllantirishga e'tiborni qaratish lozimdir. Kasb—bu insonni hayot yo'lini boshqaruvchi katta bir kuchdir. Shuning uchun xalqimizda "Kasbingdan baraka top", degan gap bor. Mutaxassisliging—kelajagingdir. Darhaqiqat, insonning egallagan kasbi- uning kamoli, bir umrlik yo'ldoshidir. Bugungi yoshlarimiz birgina emas, balki bir necha kasbni egallashlari imkoniga egadirlar. Faqat bunga qiziqish, mehnat qilish, va layoqat poydevori mustahkam bo'lmog'i kerak.

Shunday kasb tanlanganki bunda boshqa kasblarga ham imkon tug'ulsin. Yildan-yilga yangi kasblar bo'layotganiga e'tibor berib, muntazam malakani oshirib borishga, bir-biriga yaqin mutaxassisliklarni o'zlashtirishga tayyor turib tanlangan kasbingiz butun taqdiringizni keskin ravishda o'zgartirib yuborishdan qo'rqqanlik kerak. Kasbiy o'zini anglash, kasbiy qadriyatlarni hurmat qilish va kasb -hunarga yo'naltirish bu o'sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi tug'ma

layoqatini qo'llab quvvatlash va rivojlantirish misolida namoyon bo'ladigan umuminsoniy madaniyat komponentlaridan biri bo'lgan umumlashtiruvchi tushunchalardir. Kasb-xunarga yo'naltirish insonga kasbiy o'zligini anglashda va optimal bandlik turini tanlashda uning talab va imkoniyatlarini, mehnat bozoridagi ijtimoiy- iqtisodiy holatini hisobga olgan holda maxsus ko'mak berish choralari kompleksini amalga oshirishdir.

Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi-kasbiy ta'lim sifatining asosiy mezonlaridan biridir. Kasbiy ta'lim sifatining asosiy mezonlaridan biridir. Kasbiy ta'lim mazmunini loyihalashtirishda bo'lajak mutaxassislarga qo'yilayotgan malakaviy talablarni tahlil qilish zarur. Chunki bugungi kunda ish beruvchilar tomonidan mutaxassislarga qo'yilayotgan malakaviy talablarni tahlil qilish zarur. Chunki bugungi kunda ish beruvchilar tomonidan mutaxassislarga mahsus talablar qo'yilmoqda. Bu talablar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

kasbiy mahorat, mehnat bozoriga kasbiy moslashuvchanlik, raqobatbardoshlik, o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbiy kompetentlik, ijtimoiy-kasbiy kompetentlik (ma'naviy, xuquqiy, iqtisodiy, ekologik, madaniy kasbiy rivojlanish).

Bo'ajak kichik mutaxassislarning kasbiy kompetentligi amaliy faoliyatning barcha yo'nalishlarida namoyon bo'lishi lozim. Shuning uchun ularda kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy kompetentlikning barcha kompetentlarini shakllantirishni talab etadi.. Buyuk allomalarimizning kasbiy mehnat ta'limi va tarbiyasini yosh avlod ta'lim va tarbiyasini tarkibiy qismi sifatida qaralganliklarini, uni aqliy, jismoniy va ma'naviy -tarbiyabilan birgalikda qo'shib olib borish lozimligi to'g'risida bildirgan fikrlari diqqatgasasovardir.

Qomusiy olimlar ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda bolaning moilligini, qobiliyatini hisobga olish zarurligining tub mohiyatini ko'rsatib beradi. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy kishilarning baxt-saodati kamoloti uning halol mehnat qilish kasb-hunar o'rganishi deb biladi. Beruniyning "Geodeziya", "Minerologiya", "Hindiston", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", nomli asarlarida o'zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb -hunarga oid qimmatli ma'lumotlar bergan."Barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmati, uning avlod-ajdodi kim bo'lganligi bilan emas, balki uni halol mehnati bilan ulug'laydi, buning uchun mehnat zarur, faqat aql-idrok va mehnatning jonlanishigina kishilar hayotini belgilab beradi"-deydi.

Mutafakkirlarning quyidagi hikmatlari tahsinga loyiqdir: " har bir insonning qadr-qimmati o'z ishini qoyil qilib bajarishida" , "bugunning chorasini ko'rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqillidir", " asalarilar ham o'z jinsidan bo'la turib, ishlamay o'z uyasida asalni yeb yotganlarini o'ldirib tashlaydi".

Abu Rayhon Beruniy insonni halol mehnat qilishi va kasb hunar egallashi tufayli aql, zakovati, qobilyati, qudrati oshib borishiga ishonadi. Bu bilan u mehnatsevarlik, o'z kasbini ardoqlashdek fazilatlarini nihoyatda qadrlaydi.

Abu Rayhon Beruniy yoshkarni ong kichik yoshdan boshlab qobilyatiga qarab mehnat qilishga o'rgata borish kattalar mehnatini e'zozlaydigan qilib tarbiya berish, Bolani bilim va kasbga o'rgatish, oilaning diqqat markazida bo'lishni ijobiy baholaydi. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta'lim, bilim va hunar o'rgatish bilan bog'liq holda davom ettirishni alohida takidlaydi.

Abu Ali ibn Sino ham bolalarning kasb hunarga qobilyati va qiziqishini aniqlashning muhimligini alohida takidlab o'tkan. U shundan keyingina Bolani o'zi tanlagan kasb hunar sir asrorlariga o'rgatish mumkin deb hisoblagan: "Har bir odamni o'zini qiziqishi va layoqati iste'dodiga qarab o'qitish kerak, ask holda ta'lim va tarbiya ko'zlangan natijani bermaydi."

Murabbiy bolaning ta'limga biror bir hunar va sana'tga bo'lgan intilishini aniqlash lozim, chunki ularga ega bo'lgandan so'nggina u o'zida yashash vositalari bilan taminlay oladi. Ma'lumki Sharq halqlarining manaviy merosi ajoyib afsonaviy va tarixiy dostonlariga, masal va rivoyatlarga bot bo'lib, mavzu jihatdan bir biriga chanbarchas bog'liqdir. Ularning asarlari mazmunidan kelib chiqadigan fikrlar nafaqat yoshlarni, ro'zg'or tebratishga, oilaga tayyorlash ularning tabiyasi, oila muammolari balki davlar ahamiyatidagi ahloqiy, ijtimoiy muammolarni ham hal etishda muhim ro'l o'ynaydi. Ibn Sino har bir damning mijozidan kelib chiqqan holda alohida e'tibor berilishi kerakligini takidlash tufayli juda katta ammalij ish qilganligiga guvoh bo'lamiz. Uning fikricha, har bir inson unga tegishli bo'lgan xususiyatlarga ega, unga o'zshagan kimsalar kamdan kam bo'lad. Allomaning falsafiy psixologik qarashlari hozirgi davrda ham ijtimoiy hayotimizda o'z ahamiyatida ega bo'lib kelmoqda. XII-XVI asrlarda yashab ijod qilgan mutafakkir allomalardan Jaloliddin Rumiy, abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoi, Xorazmiy va boshqalarning asarlarida, qollanmalarida falsafiy psixologik mulohozalarida turli kasblarga oid turga teng teng bo'lgan fikrlarni aytadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoev SH. M. Jismoniy va barkamol yoshlar-bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir. 1-jild.-T. "O'zbekiston" NMIU, 2018-yil. 505-bet.
2. Mirxalilova N.A. TIMSS 2023 mathematics assessment scope // Annals of Forest Research <https://www.e-afr.org/> 2022. 5399-5404-b.
3. Mirxalilova N.A. Use of the "Working with objects" methodology in preparing for international studies // American Journal of Research in Humanities and Social Sciences // ISSN (E): 2832-8019 Volume 13, | June, 2023. Pp: 152-154. www.americanjournal.org.
4. . Mirxalilova N.A. Funktsional savodxonlik tushunchasi // O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари, 2023, [1/2] ISSN 2181-7324. Falsafa

<https://science.nuu.uz/.Social> sciences. 216-218 b (13.00.00) №15.

5. Mirxalilova N.A. O'qish, matematik va kreativ savodxonlik funksional savodxonlikning asosi // Yosh olimlar Axborotnomasi. Maxsus son (4)2023 104-109 b. (13.00.00) № .
6. Mirxalilova N.A. Functional Literacy in Primary Education // AMERICAN Journal of Religious and Cultural Studies Volume 2, Issue 4, 2024 ISSN (E): Pp: 2993-2599.
7. Mirxalilova N.A. O'qish savodxonligini oshirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining o'rni // Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari 18-noyabr 2022-yil. 175-178 b.
8. Mirxalilova N.A. Funksional savodxonlikni shakllantirish vositalari // Boshlang'ich ta'lim tizimiga integrativ yondashuv: nazariya va amaliyot. Respublika ilmiy va ilmiy-nazariy anjuman materiallar to'plami. 20-dekabr 2022-yil. 24-26 bet.
9. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik darajalarini oshirish // "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 22-dekabr 2022-yil. 738-741 bet.
10. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich ta'limda TIMSS tadqiqotlari uchun matnli masalalar // "Ilm-fan taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro qo'shma ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent amaliy fanlar universiteti, 2023-yil 19-21-dekabr kunlari. <https://zenodo.org/records/10444474>. 370-372 bet.
11. Mirxalilova N.A. O'qish, matematik va kreativ savodxonlik – boshlang'ich ta'limda funksional savodxonlikning asosi // "Yangi O'zbekiston taraqqiyotida zamonaviy ta'lim: Muammolar va yechimlar" mavzusidagi ilmiy – amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. IYIU. 20-dekabr 2023-yil. 86-92 b.
12. Mirxalilova N.A. "Pedagogik ta'lim klasteri vositasida O'zbekistonda matematika ta'limini samaradorligini oshirish usullari" // TVCHDPI "Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya 2021-yil 25-26 iyun 160-165 betlar.
13. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich ta'limda funksional savodxonlik darajalarini oshirish // [Home / Archives / Vol. 18 No. 2 \(2023\): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 18 | Часть2. http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4542](http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4542). 174-177 b.
14. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. "Uzluksiz ta'limda kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida" // "Uzluksiz ta'lim" jurnali 2021 yil 5-son 9-12 betlar. (13.00.00) №9.
15. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. Funksional savodxonlik tushunchasi va uni shakllantirish usullari // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирийў. Илмий-методикалық журнал. 2023-yil. 2/3- san. 340-346-bet. (13.00.00) №20.
16. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. "PISA xalqaro dasturida matematik savodxonlik" // TVCHDPI "Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va echimlar" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya 2021-yil 25-26 iyun 1476-1480 betlar.

17. Mirxalilova N.A., Davlatova M.A. TIMSS xalqaro baholash dasturida miqdor tushunchasi va uning turlari // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 9 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1.
18. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. Funktsional savodxonlikni shakllantirish usullari // “Uzluksiz ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman. 2022/12/20.
19. Mirxalilova Nargiza Akbarovna, Haydarova Marjona Rustam qizi. PIRLS tadqiqoti- o’qish savodxonligini oshirishning asosi // Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi <http://web-journal.ru/> 17-son_4-to’plam_Mart -2024 ISSN: 3030-3621. 58-61 b Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/3827>
20. Mirxalilova Nargiza Akbarovna, Ibragimova Shaxlo Ilg’or qizi. Boshlang’ich sinf matematika darslarining tashkil qilishning o’rganilishi // Ta’lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 17(4), 62–66. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/3828> <http://web-journal.ru/> 17-son_4-to’plam_Mart -2024 ISSN: 3030-3621
21. Usmanova Mashkura Mirzoroximovna. Содержание совершенствования методики обучения будущих учителей русского языка на основе рефлексивных инновационных технологий и ее научно-теоретические педагогические основы // European Journal of Interdisciplinary Research and Development. 2025-yil. Website: www.ejird.journalspark.org
22. Usmanova Mashkura Mirzoroximovna. Совершенствование методики обучения будущих преподавателей русского языка на основе рефлексивных инновационных технологий как актуальная проблема // academic research in modern science International scientific-online conference. 2025-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14723225>
23. Usmanova Mashkura Mirzoroximovna. Совершенствование методики преподавания русского языка на основе рефлексивных инновационных технологий для будущих учителей русского языка // тенденции развития науки "москва - 2025". 2025-yil.
24. M.M.Usmanova. Spiritual and Moral Self-Awareness: The Key to Harmony and Personal Development // Intersections of Faith and Culture: AMERICAN Journal of Religious and Cultural Studies. -18/04/2024, 2024-yil.
25. M.M.Usmanova. o’qish darslarida qo’llaniladigan metodlar // Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi. -20.03.2024, 2024-yil.
26. N.T.Sobirova, M.M.Usmanova. O'zbekistonda inklyuziv joriy etilishi // Yosh olimlar axborotnomasi. -Maxsus son (4)2023, 2023-yil.